



OMMAVIY TARTIBSIZLIKLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH
SABABLARI

МАССОВЫЕ БЕСПОРЯДКИ И ПРИЧИНЫ ИХ
ВОЗНИКНОВЕНИЯ

MASS RIOTS AND THEIR CAUSES

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti magistratura tinglovchisi
podpolkovnik **Ergashev Anvar Ashrafovich***

Annotatsiya: Ushbu maqolada ommaviy tartibsizlik nima ekanligi, uning paydo bo'lish sabablari hamda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va mafkuraviy omillar natijasida yuzaga keladigan tartibsizliklarning mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ommaviy tartibsizlik, ommaviy tadbirlar, siyosiy yondashuv, demokratik tamoyil, miting, yig'ilish, namoyish, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, jamoat joyi.

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность массовых беспорядков, причины их возникновения, а также природа беспорядков, возникающих в результате политических, социальных, экономических и идеологических факторов.

Ключевые слова: массовые беспорядки, массовые мероприятия, политический подход, демократический принцип, митинг, собрание, демонстрация, общественная безопасность, охрана общественного порядка, общественное место.

Abstract: This article explores the nature of mass riots, the causes of their emergence, and the essence of disturbances arising from political, social, economic, and ideological factors.

Keywords: mass riots, public events, political approach, democratic principle, rally, meeting, demonstration, public safety, maintenance of public order, public place.



Hozirgi vaqtda ommaviy tartibsizliklarni siyosiy yondashuv asosida tadqiq etish dolzarblashib bormoqda. Chunki tashqi faktorlar, yoki mamlakat ichidagi destruktiv kuchlar, ekstremistik tashkilotlar o‘z maqsadlari yo‘lida tartibsizliklardan muhim vosita sifatida foydalanishmoqda.[1]

Ommaviy tartibsizliklar — bu jamoat tartibini buzadigan, ko‘pincha norozilik yoki talablarni ifoda etish maqsadida tashkil etilgan keng ko‘lamli harakatlardir. So‘nggi yillarda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar fonida bunday tartibsizliklar soni ortib bormoqda. Ular davlat barqarorligiga, iqtisodiy taraqqiyotga va fuqarolarning huquqiy himoyasiga jiddiy xavf solmoqda. Shu sababli ommaviy tartibsizliklarni oldini olish va bartaraf etishga oid ilmiy-tadqiqotlar dolzarbdir.

Ushbu muammo nafaqat O‘zbekistonda, balki global miqyosda ham ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy adolatsizliklar va siyosiy noroziliklar har doim yuzaga kelishi mumkin. Ilmiy jihatdan, ommaviy tartibsizliklarning sabablari, ularning shakllanish mexanizmlari va oldini olish usullarini o‘rganish ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy shartidir.

Ommaviy tartibsizliklar tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, miloddan avvalgi II ming yillikda qadimgi Misrda ishchilarning norozilik yurishlari kuzatilgan. Misr tarixidagi birinchi “ish tashlash” (m.avv. 1152-yil) Deir el-Medina shahrida sodir bo‘lgan — bu holat davlat tarixidagi ilk hujjatlashtirilgan ijtimoiy norozilik sifatida tan olingan. Bundan tashqari Rim imperiyasida (m.avv. V–I asrlar) “Plebeiyarning chiqishlari” (Secessio plebis) ijtimoiy tengsizlikka qarshi yo‘naltirilgan bo‘lib, ular natijasida plebeylar o‘z vakolatlarini kengaytirishga erishgan.

O‘rta asrlarda ommaviy tartibsizliklar diniy, agrar va siyosiy ziddiyatlar natijasida yuzaga keldi:

- 1381-yil Angliya dehqonlar qo‘zg‘oloni — soliq siyosatiga qarshi xalq isyoni, Jek Ked boshchiligida bo‘lib o‘tgan;
- 1517–1525-yillar Germaniya dehqonlar urushi — Martin Lyuter davrida diniy islohotlar fonida yuz bergan eng yirik ijtimoiy qo‘zg‘olon;



- Fransiyada 1358-yilgi Jacquerie — feodallarning zulmiga qarshi ommaviy qo'zg'olon.

Bu davrda tartibsizliklar ko'proq sinfiy zulm va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash shaklida namoyon bo'lgan.

Ommaviy tartibsizliklar deganda, davlatning suvereniteti, jamoat tartibi va xavfsizligi, fuqarolarning shaxsiy xavfsizligiga ta'sir qiluvchi ommaviy jinoyat sifatida, zo'rlash, o't qo'yish, buzg'unchilik, davlat va shaxsiy mulkni o'g'irlash, talash va yo'q qilish, tinch aholi va hukumat kuchlariga nisbatan sovuq (o'q otar) qurol, portlovchi yoki tez alanga oluvchi moddalarni tayyorlash va qo'llash, qarshilik ko'rsatish, davlat, jamoat tashkilotlari va muassasalari, transport vositalari faoliyatini izdan chiqarish va bu vaziyatda ularni bartaraf etish uchun keskin chora-tadbirlarni qo'llashga majbur qiluvchi hodisalar tushuniladi. Ommaviy tartibsizliklarning yuzaga kelishi turli xil sabablarni o'z ichiga qamrab olishi mumkin. Ommaviy tartibsizliklar tarixdan ma'lumki, jamiyat rivojlanishining har bir davrida namoyon bo'lib kelgan. Ommaviy tartibsizliklar ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Ular turli sabablarga ko'ra paydo bo'lishi mumkin - ijtimoiy-iqtisodiy (oziq-ovqat yetishmovchiligi, fojiali inflyatsiya, umumiy ishsizlik va boshqalar), siyosiy (hokimiyatning o'zboshimchaliklari, demokratik erkinliklarning buzilishi, hukumat siyosatidan norozilik va boshqalar), etnik (milliy ozchiliklarning huquqlarining buzilishi yoki aksincha, mahalliy bo'lmagan etnik guruhlarining ijtimoiy hayotining muhim sohalari vakillarida ustunlik va boshqalar), diniy (turli dinlar vakillari o'rtasidagi kurash), jinoiy (jinoiy guruhlar o'rtasidagi ta'sir doiralarini qayta ko'rib chiqish uchun kurash) va boshqalar [2].

Ma'lum bir sababga ko'ra g'azablangan odamlardan tashkil topgan kichik guruhlar yetarlicha katta guruhga birlashganda, o'z-o'zidan paydo bo'lgan xatti-harakatlarning namoyon bo'lish ehtimoli keskin oshadi. Tarixga nazar soladiga bo'lsak, eng yirik ommaviy tartibsizliklar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida yuzaga kelishni boshlagan. Ushbu davrlarda kuchli inqilobiy bosqichlarni kuzatgan



G.Lebon olomonga juda majoziy ta'rif bergan: "Olomon bo'ronlar ko'targan va turli yo'nalishlarda tarqalgan barglarga o'xshaydi, keyin esa yerga qulaydi" [3].

"Tartibsizliklar" iborasi bu hodisani ikki tomondan tavsiflaydi va birinchidan, ular zo'ravonlik yoki boshqa jamoat tartibini buzish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, ular ommaviydir. Ommaviy tartibsizliklar jinoiy harakat bo'lib, katta ijtimoiy xavf tug'diradi, chunki u o'z-o'zidan sodir bo'ladigan va jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ko'plab muhim ob'ektlarga tajovuz qiladigan haraktlaridan biri hisoblanadi. Bularning barchasi tartibsizliklarni jamoat xavfsizligiga qarshi eng xavfli jinoyatlardan biriga aylantiradi, bu esa huquqni muhofaza qilish organlaridan uni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan tarkibning barcha elementlarini sinchkovlik bilan o'rnatishni talab qiladi [4].

Aytish joizki, tartibsizliklar ba'zan fuqarolarning yig'ilish huquqini suiiste'mol qilish natijasida yuzaga keladi. Huquq falsafasida qayd etilishicha, "zamonaviy dunyoda odamlarda individual va jamoaviy harakatlar uchun mas'uliyat hissi zaiflashgan, bu esa turli nizolar va ofatlarga olib keladi. Shu sababli, siyosatchilar va huquqshunoslar, faylasuflar va sotsiologlar o'rtasida "Insonning asosiy burchlari to'g'risidagi xalqaro deklaratsiya" ni qabul qilish g'oyasi muhokama qilinmoqda. Zamonaviy sharoitda inson huquq va erkinliklari, shuningdek, burchlar mutanosibligi barqarorlik va insoniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash omillaridan biri bo'lib, bu o'z navbatida uchinchi ming yillikda ham insoniyat umrining uzaytirilishining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda [5].

Ommaviy tartibsizliklar yuzasidan ko'plab olimlarning tadqiqotlar mavjud, ulardan biri, SSSRda 1953–1980 yillarda ommaviy tartibsizliklarni tashkil etish bo'yicha tadqiqotchilardan V.A.Kozlov o'zi o'rgangan arxiv ma'lumotlariga asoslanib, belgilangan vaqtda amalda bo'lgan amaliyotga ko'ra, bunday tartibsizliklar kamida 300 kishi ishtirok etgan "ommaviy" deb tan olingan, degan xulosaga keladi [6].



Ommaviy tartibsizliklar – bu oʻrnatilgan jamoat tartibi va xavfsizligini ommaviy joylarda buzishda ifodalangan koʻplab insonlarning boshqarilmagan harakatlari. Ommaviy tartibsizliklarni tashkil qilish – ommaviy tartibsizliklarni tayyorlashga yoʻnaltirilgan masalan, tashviqot oʻtkazish, faollarni tanlash, ommaviy tartibsizlik rahbarlarini yaratish, rejani tayyorlash, ularni oʻtkazish joyi, vaqtini tanlash, plakat, shiorlar va varaqalarni tayyorlash kabi shaxsning har qanday harakatlarini tushunish lozim.

Ommaviy tartibsizliklar qatnashchilarini quyidagi 3 turga boʻlishimiz mumkin:

- ommaviy tartibsizliklar tashkilotchilari;
- ommaviy tartibsizliklarning faol qatnashchilari;
- toʻda olomon;

Ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilari asosan quyidagi shaxslar toifasidan iborat boʻladi:

1. Bezori va spirtli ichimliklar, giyohvand moddalarga tobe;
2. Ekstremizm ruhida boʻlganlar va muqaddam sudlanganlar;
3. Yashash yoki ish joyi boʻlmaganlar;
4. Jinoyatchilar;

Ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqish sabablari quyidagilar:

Jinoyatchi yoki davlatga qarshi ish tutadigan, gʻoyaviy axloqiy beqaror shaxslar harakatlari.

Bezorilik qilishga moyil shaxslarning harakatlari.

Yoshlardan tashkil topgan beqaror guruhlar orasidagi toʻqnashuvlar.

IIO va boshqa organ vakillariga qarshi, kuch ishlatish yoʻli bilan jazolashni maqsad qilgan shaxslarning xatti-harakatlari.

Jazoni ijro etish muassasalaridan guruhliy qochishni hamda JIEM maʼmuriyatiga hujum qilishni maqsad qilgan mahkumlarning harakatlari.

Ayrim ishlab chiqarish korxonalarida, yotoqxonalarda, oʻquv yurtlarida tarbiyaviy ishlarning yetarli emasligi.



Ba'zi mansabdorlar tomonidan aholining va mehnatkashlarning yetishmovchiligi yoki mehnat sharoiti to'g'risida haqli talablarni bajarmasligi yoki mensimasligi.

Ishchilarga oylik maoshining o'z vaqtida berilmasligi.

Mehnat va texnika xavfsizligini tashkil qilishda buzilishlarga yo'l qo'yish, transport qatnovining davriy ishlamasligi, undagi kamchiliklar.

HMQO tomonidan korrupsion harakatlar sodir etish.

HMQO tomonidan qonunchilik prinsiplari buzilishi, hokimiyat vakolatlaridan chetga chiqish.

Guruhlar aro to'qnashuvlar, ichkilik bozlik, bezorilik haqida o'z vaqtida xabar bermaslik.

Davlat hokimiyati tomonidan fuqarolarning asossiz ravishda sha'ni, qadr-qimmatini kamsitilishi va boshqalar.

Bosh qomusimizning VIII- bobi "Siyosiy huquqlar" deb nom olgan. Ushbu bobning 38- moddasida Fuqarolar o'z faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egaligi, hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega ekanligi belgilangan.[7]

O'zbekiston Respublikasida Ommaviy tartibsizliklar uchun Jinoyat kodeksining 244- moddasida javobgarlik belgilangan bo'lib unga ko'ra, Ommaviy tartibsizliklarga

va fuqarolarga nisbatan zo'ravonlik qilishga omma oldida da'vat qilish- uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazosi bilan, o'sha harakatlar bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoki ommaviy axborot vositalaridan, telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan, Internet jahon axborot tarmog'idan, shuningdek matnni ko'paytirishning bosma yoki boshqa usullaridan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa- besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazosi bilan, Qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo'rqitib shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish, qirg'in solish, o't



qo'yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish orqali sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar tashkil qilish, shuningdek, ommaviy tartibsizliklarda faol qatnashish holatlari uchun esa- o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazosi bilan jazolanishi belgilangan.[8]

Xulosa qilib aytganda, ommaviy tartibsizliklar ro'y berganda shaxs, davlat va jamiyat uchun quyidagi og'ir oqibatlar olib kelishi mumki:

- fuqarolarning o'limiga sabab bo'lishi, kimlardir otasiz, kimlardir onasiz va kimlardir yaqin qarindoshlaridan ajralib qolishi mumkin;

- turli og'irlikdagi tan jarohatlar yetkazishiga, kimlardir oyog'idan, kimlardir qo'lidan, kimlardir bir umirga nogiron bo'lib to'shakka yotib qolishiga sabab bo'lishi mumkin;

- katta miqdordagi moddiy zarar yetkazishiga, ya'ni elektir energiyasiga zarar etishi, savdo do'konlarining va ishlab chiqish inshootlarining talon taroj qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdug'opirovich X.M. Ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash faoliyatini o'rganishdagi ilmiy yondashuvlar //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 749755-749755.
2. Ахметханов А.Ф. Объект состава массовых беспорядков // Российский следователь. – 2012. – № 21. – С. 9
3. G. Lebon. Psychologie der Massen. Stuttgart, 1982.
4. Григорьев В.Н. Расследование массовых беспорядков в условиях чрезвычайного положения. М.:Юрайт, 2008.
5. Вдовиченко К.Г. Понятие массовых беспорядков // Современные проблемы уголовной политики: материалы V Междунар. науч.-практ. конф., 3 окт. 2014 г.: в 3 т. / под ред. А.Н. Ильяшенко. – Краснодар: Краснодарский университет МВД России, 2014.
6. Козлов В.А. Массовые беспорядки в СССР при Хрущеве и Брежнев (1953 – начало 1980 гг.). М., 2010. С. 22.



7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. -120b
8. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.